

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI» kafedrası

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

Kafedra mudiri, prof. Xolbekov R.O.

_____2013 y.
«____» _____

**“KO'RSATILGAN XIZMATLAR TANNARXINI KALKULYASIYA
QILISHNING O'ZIGA XOS USULLARI VA HISOBI”
MAVZUSI BO'YICHA YOZILGAN
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«Himoyaga tavsiya etiladi»
Ilmiy rahbar: dots. Xoshimov B.A.

«____» _____2013 y.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit»
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi
Xayrilloev Dilshod Narzilloevich

«____» _____2013 yil

MUNDARIJA

Kirish

I-BOB. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalash sharoitida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi va hisobining nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

1.2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari

1.3. Ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlari hisobining nazariy va uslubiy asoslari..

II-Bob. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxining o'ziga xos xususiyatlari va hisobini tashkil qilish amaliyoti

2.1. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda xarajatlari hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari

2.2. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilish amaliyoti

2.3. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kamaytirish yo'llari

III-Bob. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi va hisobini zamonaviy usullar yordamida takomillashtirish yo'nalishlari

3.1. Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda horij tajribasi ..

3.2. "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda "Direkt-kosting" tizimini joriy qilish masalalari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiya qilish sharoitida respublikamizda xizmatlar ko'rsatish tarmog'ini rivojlanishi o'z navbatida iqtisodiyotni yanada yuksalishiga olib keladi. Bu borada Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "O'zbekistonni 2013 yilda iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilar ekanmiz, biz, avvalo, o'tgan yillarda iqtisodiyotimizda erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, shuningdek, jahon bozoridagi real va kutilayotgan, prognoz qilinayotgan holatdan kelib chiqamiz.

Bugun shuni tan olish kerakki, hamon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamda uning oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan inqirozga qarshi dasturlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bu boradagi ahvol, afsuski, yaxshilanmayapti, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa uning yomonlashish tendensiyasi kuzatilmoqda"¹.

Albattda, bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini rivojlantirishda boshqaruv qarorlarini oqilona qabul qilish va uning natijasida xarajatlarini kamaytirish hamda hisobini to'g'ri yuritish zaruriyatga aylanmoqda. Iqtisodiy munosabatlar davrida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ko'rsatish xizmatlar tannarxini aniqlash, ular bilan bog'liq xarajatlari hisobi va auditini to'g'ri tashkil etilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyatini mustahkamlashga erishiladi hamda ushbu malakaviy ishning dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganganlik darajasi. Xo'jalik yurituvchi xo'jaliklarda ko'ratilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish, xarajatlar hisobini takomillashtirish bo'yicha bir kator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan horijlik olimlardan V.Paliy, N.Kondrakov, O.Nikolaeva, S.Buchkova, A.Arens, Dj.Lobbek, A.SHeremet, V.Suys kabilarni keltirish mumkindir.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Ibragimov, M.Pardaev, S.Vaxidov, N.Jo'raev, M.To'laxo'jaeva, B.Xasanov, Z.Mamatov, R.Xolbekov, A.To'ychiv, I.Qushmonov boshqa bir kator olimlar tomonidan bildirilgan nazariy hamda amaliy takliflari muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchisub'ektlarda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish, xarajatlar hisobini tashkil etishning nazariy va uslubiy masalalarini o'rganish hamda ular yuzasida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmat ko'satish xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochib berish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish usullarini o'rganish;
- ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlari hisobining nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy asoslash;

¹ Каримов И.А. "Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш" тўғрисидаги маърузаси. ("Халқ сўзи" газетаси, 2013 йил 19 январь, № 13 (5687))

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xarajatlari hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish amaliyoti tadqiq etish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kamaytirish yo'llarini ilmiy asoslash;

- ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishda horij tajribasini joriy qilish amaliyotini tadqiq etish;

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy qilish yo'nalishlarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib, “BIG-PROM-SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatning buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti bo'lib, “BIG-PROM-SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish, ko'ratilgan xizmatlar xarajatlari hisobining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ularning harakatini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, shuningdek, uning auditini takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tartibga soluvchi Qonunlari, Prezident I.A.Karimovning ma'ruza va asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Moliya vazirligining hisob tizimi uslubiyatiga doir me'yoriy xujjatlari va yo'riqnomalari tashkil etadi.

SHuningdek, tadqiqot jarayonida mavzuga oid xorijiy, respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, “BIG-PROM-SERVIS” MCHJning xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiliklari quyidagilar bilan belgilanadi:

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmat ko'satish xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochib berildi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish usullarini o'rganildi;

- ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlari hisobining nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy asoslandi;

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xarajatlari hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berildi;

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish amaliyoti tadqiq etish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kamaytirish yo'llarini ilmiy asoslandi;

- ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishda horij tajribasini joriy qilish amaliyotini tadqiq etildi;

- “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan “Direkt-kosting” tizimini amaliyotga joriy qilish yo'nalishlarini belgilab berildi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Oliy ta'lim muassasalarida “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fanini

o'qitishda uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan amaliy tavsiyalardan "BIG-PROM-SERVIS" MCHJda buxgalteriya hisobini yuritishda uslubiy ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Kirish, o'zaro bog'langan uchta ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-Bob. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalash sharoitida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi va hisobining nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini samarali boshqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarajatlar deb korxona kapitali (aktivlari) miqdorining kamayishiga olib keluvchi majburiyatlar vujudga kelishi yoki aktivlar sarflanishi natijasida iqtisodiy manbaning kamayishiga aytiladi. Ular, odatda, faoliyat davomiyligini ta'minlash va daromad olish uchun sarflanadi.

Xarajatlar – bu maxsulot ishlab chikarishga sarflangan va maxsulotning tannarxini tashkil kiladigan resurslarning puldagi ifodasidir. Xarajatlarning salmogi ishlab chikarilgan maxsulot tannarxiga, tannarx esa korxonaning daromadiga ta'sir qiladi. Shu sababli ularni to'g'ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda xarajatlarning tarkibi va turlarini bilish zarur.²

Ayni paytda respublikamizning hamma korxonalarida, shu jumladan, savdo, sanoat, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida ularning faoliyatida xarajatlarni hisobga oluvchi asosiy hujjat bu "Maxsulotlar (ish, xizmat)larni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom hisoblanadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatida xarajatlarni hisobga olishning' asosiy xususiyati - ularni koplash (tulash) vakti va shaklidan qat'iy nazar kaysi hisobot davrida vujudga kelgan bo'lsa, o'sha davrda aks ettiriladi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatida sodir bulgan barcha turdagi xarajatlar kuyidagi shartlar bajarilganda hisobda tan olinadi:

- xarajatlar aniq shartnoma shartlari, konunchilik va me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshirilganda;
- xarajatlar summasi (mikdori)ni aniqlash mumkin bulganda;
- xo'jalik jarayonlari natijasida korxonada iqtisodiy manbaning' kamayganlig'i aniq bulganda, ya'ni aktiv sarflanganda.

Agar korxona tomonidan sarflangan xarajatlar bo'yicha ushbu shartlardan biri bajarilmasa, hisobda ular debitorlik karzi sifatida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olishning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular kaysi maksad uchun (aytaylik, daromad olish) va amalga oshirish shaklidan (pulli, moddiy) kat'iy nazar hisobda tan olinishi zarur.

Korxona xo'jalik faoliyatida xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchliligi va ularning hisobini to'g'ri yuritishni ta'minlash uchun ularni hisobotda daromad va xarajatlar muvofikligi tamoyiliga asosan aks ettirish zarur. Bu zaruriyat

² Жўраев Н., Холбеков Р., Абдувахидов Ф., Илхомов И. Бухгалтерия хисоби, иктисодий тахлил ва аудит. Дарслик. -Т.: 2007 й

daromad va xarajatlar hisobini korxona faoliyatining turlari bo'yicha yuritish afzalliklaridan kelib chikadi, chunki "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotda nafakat korxona faoliyati yalpi tushumi va maxsulot tannarxi, shu bilan birga xar bir faoliyat turi bo'yicha daromad va xarajatlar mikdori ham aloxida aks ettiriladi. Bu xolat ma'lumotdan foydalanuvchilarga xar bir faoliyat turi yakuniy natijasini baxolashga imkon yaratadi.

Xarajatlar hisobidagi muhim jixatlardan biri - ularni hisobga olish ma'lum sabablarga ko'ra iqtisodiy manbaning kelib tushmasligi aniq bo'lganda ham hisobot davrida sodir etilgan xarajatlarni tan olish orkali amalga oshiriladi. Bunda, sarflangan xarajatlar usha hisobot davrida aks ettiriladi, daromadni tan olish mezonlari bajarilmay koladi. Bularga maxsulot bermagan ishlab chikarish jarayoni va bekor kilingan buyurtma bo'yicha sarflangan xarajatlar misol buladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati xarajatlari moliyaviy natijalarga teskari proporsional ravishda ta'sir kursatadi. Ular, asosan, mulkiy va mexnat resurslarini sotib olishga sarflangan mablaglar bulib, korxona uchun majburiy tulov hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida xarajatlarni guruhlariga to'g'ri va aniq bo'lish buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sifatini oshiradi. Maxsulot ishlab chikarish xarajatlari uz navbatida bir necha kursatkichlari bo'yicha guruhlariga ajratiladi.

1-jadval

Xarajatlar klassifikasiyasi

	Klassifikasiya belgilari	Xarajatlar turi
1	Ishlab-chikarish jarayonidagi iqtisodiy roliga karab	asosiy va ikkilamchi
2	Ishlab chikarilayotgan maxsulot tannarxiga kiritilishiga karab	tug'ri va egri (bevosita va bilvosita)
3	Ishlab chikarish hajmiga nisbatan	o'zgaruvchan va doimiy

Korxonalarda xarajatlar ishlab chikarishda katnashishiga karab asosiy (ishlab chikarish) va ikkilamchi (ishlab chikarishdan tashkari) xarajatlarga bulinadi. Ishlab chikarish xarajatlariga bevosita maxsulotni tayyorlash va kayta ishlash bilan boglik xarajatlar, ishlab chikarishdan tashkari xarajatlarga esa madaniy-maishiy ob'ektlar xarajatlari kiradi.

Korxonalarda maxsulot tannarxiga kushilishiga karab xarajatlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarajatlarga bulinib, to'g'ri xarajatlarga maxsulotni tayyorlash va kayta ishlash bilan bevosita boglik bulgan material, ish xaki va boshqa xarajatlar kiradi. Egri xarajatlarga esa maxsulot ishlab chikarish bilan bevosita boglik bulmagan xarajatlar, masalan, sex boshqaruv xarajatlari, asbob-uskunalarini saklash va foydalanish xarajatlari va boshqalar kiradi.

Maxsulot ishlab chikarish hajmiga nisbatan o'zgarishiga karab xarajatlar uzgaruvchan va doimiy xarajatlarga bulinadi. O'zgaruvchan xarajatlarga mikdori maxsulot ishlab chikarish hajmining uzgarishi bilan uzgaradigan xarajatlar, masalan, xom ashyo, texnologik maksadlar uchun muljallangan yokilgi, energiya va boshqalar kiradi. Doimiy xarajatlarga esa mikdori maxsulot ishlab chikarish hajmi uzgarishi bilan uzgarmaydigan xarajatlar kiradi. Unga boshqaruv

xodimlarining ish xaki, boshqaruv binolarini saklash xarajatlari va boshqalarni misol kilib keltirish mumkin.

Xo'jalik faoliyatida sodir buladigan xarajatlar tarkibi va ularni aniqlashning yagona uslubiy asoslari xarajatlar to'g'risidagi Nizomda kursatib berilgan. Ushbu xujjatga muvofik ularni quyidagicha guruhlash mumkin:³

- asosiy faoliyat xarajatlari;
- davr xarajatlari.

Xarajatlarni ishlab chikarish va davr xarajatlari turlariga ajratishdan maksad – ma'lum davrga bulgan moddiy ishlab chikarish zaxiralari koldiklari kiymatini aniqlashdir. Davr xarajatlari esa sodir etilgan hisobot davrida hisobdan chikariladi va sotilmagan maxsulot, tugallanmagan ishlab chikarish koldigida kelgusi davrlarga utkazilmaydi. Bunday tartib korxonada baxo siyosati soxasida asoslangan karorlarni kabul kilishda muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashkari ishlab chikarish tannarxi va davr xarajatlarining aloxida ajratib kursatilishi korxonaning asosiy ishlab chikarish faoliyati bilan ma'muriy va ishlab chikarishdan tashkari faoliyatning yakuniy natijaga kandy ta'sir kursatganligini baxolash imkonini beradi. Boshqacha suz bilan aytadigan bo'lsak, maxsulot (ish, xizmat) ishlab chikarish tannarxi uni kayta ishlash bilan bevosita boglik bulgan xarajatlardan iborat buladi.

Ularga:

- to'g'ri va egri material xarajatlari;
- to'g'ri va egri mexnat xarajatlari;
- ishlab chikarish ahamiyatiga ega bulgan ustama xarajatlari kiradi.

Maxsulot (ish, xizmat) ishlab chikarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga kura quyidagi elementlar bo'yicha guruhlanadi:⁴

- ishlab chikarish material xarajatlari;
- ishlab chikarish xarakteridagi mexnatga xak tulash xarajatlari;
- ishlab chikarish xodimlarining ish xaki bo'yicha ijtimoiy sugurta ajratmalari;
- ishlab chikarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning amortizasiya ajratmalari;
- boshqa xarajatlar.

Hisobida tannarxga qo'shiladigan xarajatlar tarkibini aniqlash qator vazifalarni xal kilish imkoniyatini beradi.

Xususan:

- buxgalteriya hisobi schyotlarida bevosita maxsulot ishlab chikarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar xakida tulik va aniq ma'lumotlar tuplash;
- korxonalar faoliyati rentabelligini hisoblash;
- ishlab chikarilgan maxsulot rakobatbardoshligini aniqlash;
- solikka tortish asosini to'g'ri belgilash.

³ Уткина С.А. Составление бухгалтерских проводок в организациях разных отраслей: практ. пособ. – М.: Омега-Л, 2010. – 259 с.

⁴ ВМнинг 1999 йил 5 февралдаги 54 – сонли қарори «Махсулот (иш, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларнинг шакллантириш тартиби тўғрисида»ги Низом. ЎЗР ВМ 11.03.2009 йил 63 сонли Қарори

Korxonalarining boshqaruvchilari bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlar va ularni maksadi xakida aniq ma'lumotlarga ega bulishi kerak. Fakat bu ma'lumotlar asosidagina maxsulot (ish, xizmat) sotishdan keladigan foyda to'g'ri hisoblanishi, rentabellik to'g'ri aniqlanishi, sotilayotgan maxsulot baxosining asosli ekanligi tahlil kilinishi va umuman tanlangan xo'jalik siyosatining to'g'ri ekanligi baxolanishi mumkin. YUkorida ta'kidlanidek, boshqaruv hisobi tizimida xarajatlar turli xil yunalishdagi maksadlar uchun guruhlanishidan dalolat beradi. Bu narsani amaliyotda keng joriy etish boshqaruvchilarga ishlab chikarishni boshqarish borasida asoslangan boshqaruv karorlarini kabul kilish imkonini beradi.

1.2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish usullari

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini salbiy oqibatlarini bartaraf etish sharoitida raqobatbardosh mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatda iste'molchilar extiyojini qondira oladigan arzon hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish darkor. Bunda asosiy ko'riladigan masalardan biri mahsulot tannarxini o'rganib uni imkon qadar pasaytirishdan iborat.

Mahsulot tannarxi - shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlarning qiymat ifodasidir. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar, mehnat resurslari, va boshqa xarajatlarning qiymat bahosi.⁵

Korxonalarda mahsulot tannarxi hisobi Vazirlar maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish usullari 4-sonli BHMSGa muvofiq quyidagi usullardan foydalanadi: oddiy, me'yoriy, buyurtma, bosqichli usullari hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo'llaniladi.⁶

Tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

⁵ Жураев Н., Абдувахидов Ф., Сотиволдиева Д. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. –Т.: 2012 й. 227-бет.

⁶ 4-сонли “Товар-моддий захирлар” номли БХМСнинг 5 парагрф, 1-хат боши.

Tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yornomalari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yornomalar vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi.

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat) (bir xildagi mahsulotlar guruhi)ga doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikasiyalanadigan va hisobga olinadigan yakka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish ularning konstruksiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning haqiqiy tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Xizmat kzsrtish korxonlarida mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning qo'shimcha turlarini hisobga olish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

a) qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda sotish. Ushbu usulda joriy davrda sotilgan asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda sotish (sof sotish) summasiga kamaytiriladi. Qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning sotilmagan zaxiralari qoldig'i bo'linish nuqtasidan keyin qo'shimcha mahsulotlarni keyingi qayta ishlanishiga qilingan xarajatlar summasidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi. Qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) qoldig'ini haqiqatda sotish (sof sotish) summasi qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilganda tan olinadi;

b) qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda ishlab chiqarish. Ushbu usuldan foydalanilganda asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda sarflangan xarajatlar ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) barcha miqdorining sof sotish qiymati summasiga darhol kamaytiriladi.

Sotilmagan qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning qoldig'i sotishning sof qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Tarmoqlarining xususiyatlariga bog'liq holda tovar-moddiy zaxiralar, shu jumladan qo'shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlashning qo'llanadigan usullari tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar korxona ko'rsatgan xizmatlar tannarxini shakllantiradi:


- moddiy xarajatlar;
- mehnatga xaq to'lash xarajatlari;
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- amortizasiya xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar – ko'rsatilgan xizmat xarajatlaridan biri bo'lib, jami xarajatlarining 60-80 % atrofida bo'lishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga xom ashyo va materiallarga qilingan xarajatlar, yoqilg'i va boshqalarni o'z ichiga oladi. Xomashyo va materiallarga qilingan xarajatlar deyilganda, mahsulot sotib olgandan to korxonaga olib kelgunga qadar barcha komission va vositachilik xarajatlar tushuniladi.

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.


Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materillar, yonilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizasiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.



1-chizma. Korxona xizmat ko'rsatish va uni sotish bilan bog'liq xarajatlar tarkibi.

1-chizmada korxonada xizmat ko'rsatish hamda muomala xarajatlari va ularning tarkibini ko'rishimiz mumkin. Demak, bunda xarajatlarga yuqorida ta'kidlaganimizdek, xom-ashyo materiallari, yoqilg'i va moylash xarajatlari, ish haqi xarajatlari, amortizasiya xarajatlari, amortizasiya hamda boshqa xarajatlar kiritilgan. Muomala xarajatlari davr xarajatlari ham deb ataladi. Sof muomala xarajatlari (sotuvchi maoshi va boshqalar), marketing (iste'molchilik talabini o'rganish) reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.



2-chizma. Ichki va tashqi xarajatlar tarkibi.

Xarajatlar ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Xizmat ko'rsatish hajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'lik bo'lmagan tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, xatto nolinch hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizasiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalariga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilg'i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi. Ishlab chiqarishning har bir

darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashqil qiladi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini aniqlashdan maqsad:

- Buxgalteriya hisobi schyotida jami xarajatlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, korxona faoliyatini rentabelligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlash;

- Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniq hisob-kitobini qilish;

- Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni alohida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaviylikka bog'lash;

- Ishlab chiqarish xarajatlarini yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va nazorat qilish;

- Soliq to'lanadigan bazani aniq hisob-kitobini yurtish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda korxona sarflarini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

1.3. Ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlari hisobining nazariy va uslubiy asoslari

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olishda ularni xarajat sifatida tan olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "xarajatlar" tushunchasi xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Jumladan, N.P. Kondrakovning fikricha: "xarajatlar – muayyan maqsadda foydalanilgan resurslar qiymati"⁷.

Bunda uchta narsaga e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi:

- 1) xarajatlar foydalanilgan resurslar o'lchami bilan aniqlanadi (materiallar, mehnat va moliyaviy resurslar);

- 2) foydalanilgan resurslarning o'lchami turli resurslarni o'zaro taqqoslash uchun pul ko'rinishida ifodalanishi kerak;

- 3) xarajatlar muayyan maqsad va vazifalarga taalluqli bo'lishi kerak.

E.A.Paxomchik xarajatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Xarajatlar – korxonaning hisobot davridagi xo'jalik faoliyatida foydalanilgan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining qiymat ifodasi.

Xarajatning vujudga kelishi pul mablag'lari to'lanishi, debitorlik qarzlarning kamayishi va kreditorlar qarzlarning ko'payishi bilan bog'liq. Xarajatni korxona aktivlariga yoki chiqimlariga kiritish mumkin⁸.

YA.V.Sokolovning fikricha "xarajatlar – chiqimlarning ushbu hisobot davriga mansub bo'lgan qismi. Bu erga quyidagilar kiradi: 1) ushbu hisobot davrida

⁷ Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. - М.: ИНФРА. 2008. 273-б.

⁸ Пахомчик Е.А. Краткий курс по бухгалтерскому управленческому учету. Учеб. пособие. –М., 2007. 40-б.

vujudga kelgan va shu hisobot davrining o'zida kapitallashmaydigan chiqimlar; 2) dekapitalizasiyalanadigan aktivlar, ya'ni hisobot davridan oldingi davrlarda kapitallashgan, biroq hisobot davrida xarajatlar tarkibiga kiritiladigan chiqimlar"⁹.

SHuningdek, respublikamiz iqtisodichi olimlarining ilmiy ishlari va asarlarida xarajatlarga turlicha yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, B.Hasanovning fikricha: xarajatlar – mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir¹⁰.

Xarajatlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sifatida talqin qilib, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yilning 5 fevralida 54-sonli Qaror bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari va noishlab chiqarish xarajatlari sifatida guruhlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari – xarajatlarning bevosita mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan qismi. Noishlab chiqarish xarajatlari – xarajatlarning korxonani tashkil etish va boshqarish hamda mahsulotni sotish uchun foydalaniladigan qismi.

Xarajatlar tushunchasiga O.Bobojonov va K.Jumaniyozovlar tomonidan quydagicha talqin qilingan, jumladan: ishlab chiqarish faoliyatiga sarflangan xarajatlar - boshqaruv hisobida ko'p qo'llaniladigan atama-tushuncha bo'lib, lekin u bir xil tushunchaga ega emas. Chunki ishlab chiqarish faoliyatida qanday sarflar ko'zda tutilgan va ularning hajmi aniq emas¹¹.

Xarajatlar tushunchasiga yuqoridagi fikrlaridan ko'rinib turibdiki, har bir iqtisodchi olim tomonidan xarajatlarga turlicha yondashilgan. Lekin ularning fikrlari ham iqtisodiy nuqtai nazardan to'g'ri. Ammo buxgalteriya hisobida xarajatlarni guruhlash, taqsimlash va hisobini yuritishda ularning ahamiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagilarni hisobga xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalarning eskirish qiymati;
- sarflangan xom ashyo va materiallar;
- mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

“Xarajatlar tarkibi to'g'risida”gi Nizomga asosan xarajatlar ishlab chiqarish va davr xarajatlari bo'linadi. Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxiga qo'shiladi va sotilgan mahsulot qiymatidan qoplanadi. Davr xarajatlari esa korxonaning moliyaviy natijalari hisobidan qoplanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar to'g'risidagi axborotlarni

⁹ Соколов Я.В. Учет затрат – от теории к практике. // –М. 2009, 47-б.

¹⁰ Хасанов Б., Хашимов А.А. Бошқарув ҳисоби. – Т., 2005 й. 24 –б.

¹¹ О.Бобожонов, К.Жуманиёзов. Бошқарув ҳисоби. –Т., ТДИУ. 2005 й. 79-б.

umumlashtirish 2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotida amalga oshiriladi.

Korxonaning xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklari sifatida korxonaning maqsadi bo'lgan faoliyati mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish va xo'jaliklar tushuniladi. Jumladan, ushbu schyotda korxonaning balansida bo'lgan sog'liqni saqlash ob'ektlari, bolalar bog'chalari, uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlari, sport va madaniyat, tikuvchilik va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish ustaxonalari, oshxona va bufetlar, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlikka oid ajratilgan bo'linmalarni saqlash xarajatlari aks ettiriladi.

2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotining debetida xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi. Xarajatlar 2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotning debetiga tovar-moddiy zaxiralari, mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotining kreditida xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarxi aks ettiriladi. Ushbu summalar 2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotining krediti bo'yicha tovar moddiy zaxiralari va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini ko'rsatadi.

2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotlari bo'yicha analitik hisob har bir xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik va xarajat elementlari, moddalari bo'yicha va mahsulot turlari bo'yicha yuritiladi.

Ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlarni hisobga olishda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yilning 5 fevralida 54-sonli Qaror bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, Buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda sohaga oid yo'riqnomalar asosida tashkil qilinadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar yuqori darajada foyda olishga erishish uchun xizmatlar miqdorini aniqlash zarur. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib qo'shimcha xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Avvalo qo'shimcha xarajat deb, keyingi qo'shilgan mahsulotlarning har bitta birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga aytiladi. Qo'shimcha xarajatlarni har bir navbatdagi chiqarilgan qo'shimcha mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin.

Korxona foydalanadigan ko'plab resurslar miqdori, ya'ni jonli mehnat, xom-ashyo, yonilg'i va energiya sarflari tovar hajmining o'zgarishiga tez va oson ta'sir qiladi. Boshqa resurslar sarfi ta'sirida tovar xajmi o'zgarishi uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Masalan, og'ir sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlari ancha uzoq vaqt oralig'ida mahsulot miqdorini o'zgartirishiga ta'sir

qilishi mumkin. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga vaqt omili, ya'ni xarajat qilingan pirovard natijasi olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

2-jadval

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda xarajatlarni hisobga olishning nazariy asoslari

№	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda foydalanilayotgan asosiy vositalarning eskirishi	2710	0210-0299
2	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi to'lash xarajatlari	2710	6710
3	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan yordamchi ishlab chiqarishga ko'rsatilgan va ularning is'temol qilgan xizmatlari qiymati	2710	2310
4	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlarining sotish va ma'muriy xarajatlarga taqsimlanishi	9410, 9420	2710
5	Hisobot davri oxirida xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar zararlarining davr xarajatlariga hisobdan chiqarilishi	9430	2710
6	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar ehtiyojlari uchun materiallarning sarflanishi	2710	1010-1090
7	Kelgusi davrlar xarajatlarining ulushi xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning mahsuloti, ish va xizmatlari tannarxiga olib borildi	2710	3110-3190
8	Mol etkazib beruvchilardan xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga kelib tushgan moddiy qiymatliklar (suv, bug', energiya va xokazolar) va xizmatlar	2710	6010
9	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda sug'urta bo'yicha xarajatlari	2710	6510
10	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning mahsulotlarni etkazish va sotishda ko'rsatgan xizmatlari hisobdan chiqarildi	9410	2710
11	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning sotgan mahsulotlari, bajargan ishlari va ko'rsatgan xizmatlarining haqiqiy tannarxini hisobdan chiqarish	9110, 9130	2710

Korxona ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish uchun qisqa muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu qisqa muddatli xarajatlardir.

Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish inshootlari maydoni, mashina va uskunalar miqdori) doimiy bo'lib qoladi hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun etarli bo'lishi mumkin.

II-Bob. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko’rsatilgan xizmatlar tannarxining o’ziga xos xususiyatlari va hisobini tashkil qilish amaliyoti

2.1. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xarajatlari hisobini tashkil qilishning o’ziga xos xususiyatlari

“BIG-PROM-SERVIS” MCHJda O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o’tkazish uchun mablag’lar zaxirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zaxiraga ajratmalar “Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar” elementi tarkibida aks ettiriladi va ko’zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob’ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zaxiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko’rib chiqiladi va zarurat bo’lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko’paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zaxira mablag’lari summasi ushbu ob’ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo’yicha tuzatish kiritilishi kerak; agar haqiqiy xarajatlar zaxiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi.

1. Ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg’i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta’minlash xarajatlari.

2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko’rik va qarov, o’rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o’rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo’jalik yurituvchi sub’ektning o’z kuchi bilan o’tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to’lash xarajatlari va boshqalar) bo’yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

3. YOng’indan saqlash va qo’riqlashni hamda xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta’minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo’riqlash xarajatlari bunday qo’riqlash mavjud bo’lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo’lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

4. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo’lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog’liq xarajatlar.

5. Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari, shu jumladan atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensasiya to’lovlari.¹²

Xizmat ko’rsatish xarajatlari tarkibiga korxona ishlab chikarish jarayoni bilan bevosita bog’liq bulmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga boshqaruv, tijorat bilan bog’liq xarajatlar, shuningdek umumijalik xarajatlari, jumladan ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo’yicha xarajatlar ham kiradi, Bu xarajatlar korxona asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog’liq bulmaganligi, lekin ma’lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan boklik bulganligi uchun ular operasion

¹² ЎЗР ВМ 16.06.2003 й. 270-сон қарори

xarajatlar, umumiy va ma'muriy va hizmat ko'rsatish xarajatlari deyiladi. Ular maxsulot ishlab chikarish va sotish hajmiga bog'liq bulmagani, va aksincha, vakt bilan xo'jalik faoliyatining davomiyliqi bilan bog'liq bulgada.

“BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xizmat ko'rsatish xarajatlarini xizmat ko'rsatish, ma'muriy xarajatlar, boshqa operaiion xarajatlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi kabi “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ham asosiy ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar 2010- “Asosiy ishlab chiqarish” schyotida aks ettiriladi. Buyumlarga ishlov berish murakkab texnologiyali ishlab chiqarishda har oyning oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari aniqlanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb texnologik jarayonda nazarda tutilgan ishlov berishning barcha bosqichlaridan to'liq o'tmagan mahsulotga, shuningdek to'planmagan, sinovdan o'tmagan, texnik nazorat bo'limiga qabul qilinmagan buyumlarga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari inventarizasiya yordamida aniqlanadi yoki me'yoriy (rejadagi) tannarx bo'yicha aks ettiriladi va 2010- “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti bo'yicha qoldiq sifatida chiqarib olinadi.

Ishlab chiqarishni boshqarish xarajatlari salmoqli bo'lgan korxonalarda umumishlab qikarish xarajatlari oy davomida 2510 “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyoti debeti bo'yicha jamlanadi. Oy oxirida ushbu xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish va tovar mahsuloti qoldig'i o'rtasida taqsimlanadi.

Misol uchun“BIG-PROM-SERVIS” MCHJning asosiy faoliyati xizmat ko'rsatish bo'lsa, unga sarflangan quyidagicha xarajatlar amalga oshirildi: materiallar – 214408.3 ming so'm; elektr energiyasi – 12515.3 ming so'm; ish haqi – 10012.5 ming so'm; mukofotlar – 120 ming so'm; sug'urtaga ajratmalar – 2000.4 ming so'm; ishlab chiqarish tannarxiga o'tkazilgan umumishlab chiqarish xarajatlari – 5142.2 ming so'm; omborga topshirilgan ishlab chiqarish chiqindilari – 1520.1 ming so'm; yaroqsizlikka chiqqan mahsulotning haqiqiy tannarxi – 182.4 ming so'm.

Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i quyidagicha:

oy boshiga – **140** ming so'm;

oy oxiriga – **102** ming so'm;

3-jadval

Mazkur operasiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

ming so'm

№	Xo'jalik operasiyasining mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1	Xizmat ko'rsatishga materiallar sarfi	214408.3	2010	1010
2	Xizmat ko'rsatishga elektr energiyasi sarfi	12515.3	2010	6010
3	Xizmat ko'rsatishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi	10012.5	2010	6710
4	Xizmat ko'rsatishdagi ishchilarga mukofot hisoblandi	120	2010	6710
5	Xizmat ko'rsatishdagi ishchilar ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov hisoblandi	2000.4	2010	6520
6	Umumishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish	5142.2	2010	2510

	tannarxiga o'tkazildi.			
7	Xizmat ko'rsatishdan chiqindilar omborga topshirildi	1520.1	1090	2010
9	Xizmat ko'rsatishning haqiqiy tannarxi hisobdan chiqarildi	242534.2	9430	2010

Tayyor mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi quyidagicha formula bilan aniqlanadi;

$$S = Z + N - K - O - B,$$

bu erda **S** – chiqarilga mahsulot tannarxi, **Z** – ishlab chiqarishga xarajatlar – **2010**- schyotning debeti bo'yicha aylanma; **N** – hisobot davri boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i; **K** – hisobot davri oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishning hisob-kitob tannarxi; **O** – ishlab chiqarish chiqindilari qiymati; **B** – yaroqsizlikka chiqqan mahsulotning haqiqiy tannarxi.

Murakkab bo'lmagan texnologiyali ishlab chiqarishlarda tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi, **2010** – schyot qoldiqqa ega bo'lmaydi va uning debet bo'yicha aylanmalar summasiga quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

Debet **2810**

Kredit **2010**

Xizmat ko'rsatuvchi yoki ishlar bajaruvchi korxonalarda **2010** – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti debeti bo'yicha aylanmalar summasi oy oxirida **9130** – “Bajarilgan ish va ko'rsatilga xizmatlarning tannarxi” schyoti debetiga hisobdan chiqariladi. Ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlaridan tashqari korxonaning xarajatlar tarkibiga, shuningdek, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar, foyda solig'i bo'yicha xarajatlar quyidagilardan iborat:

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar quyigidagilardan iborat:

banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlar (investisiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiruvchi investisiyalarga olingan bank va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kreditlari bo'yicha foizlardan tashqari), shu jumladan, muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar. Mollukni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlari. CHet el valyutasi bilan operasiyalar bo'yicha manfiy kurs tafovutlari va zararlar. Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, shu'ba korxonalarga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar.

Qonunchilik o'zgarishi munosabati bilan ko'riladigan yo'qotishlar, masalan ekspropriasiya qilish, davlat tasarrufiga o'tkazish, faoliyatning ayrim turlarini taqiqlash va boshqalar. Moliyaviy hisobotda favqulodda bandlarni alohida ajratib ko'rsatishdan asosiy maqsad hisobot davrida faoliyat natijalarini yanada ham xolis aks ettirish, zero ushbu zararlar korxona xodimlarining harakatiga bog'liq emas va ular ta'sir doirasidan tashqaridadir.

2.2. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilish amaliyoti

Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari raqobatbardoshligini oshirish, mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda sotish hajmini kengaytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrda PF-4058-sonli farmoni bilan tasdiqdangan "Iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqdari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport saloxiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi"gi va Vazirlar maxkamasining 26-sonli Qaroriga muvofiq yirik sanoat korxonalari, xo'jalik birlashmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda tanqidiy tahlil asosida texnologiya jarayonlarini hamda xom-ashyo, materiallar va energiya resurslari sarfi normalarini maqbullashtirish, quvvatlardan foydalanish darajasini ko'paytirish va mehnat unumdorligini oshirish, foydalanish va qo'shimcha sarf xarajatlarni qisqartirish, xarid qilinadigan xom-ashyo materiallar va butlovchi buyumlar qiymatini pasaytirish, xodimlar hisobini maqbullashtirish hisobiga sanoat mahsulotlari tannarxini kamaytirishga yo'naltirilgan kompleks chora tadbirlar ishlab chiqildi hamda xo'jalik birlashmalari va yirik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tannarxini qisqartirishning yig'ma parametrlari tasdiqdandi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida mamlakatimizning qator yillar davomida xizmat ko'rsatish va servis sohalarining o'sish sur'atlarikeltirib o'tilgan (4-jadval).

4-jadval

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va servis sohalarining o'sish sur'atlari, oldingi yilga nisbatan foizda¹³


Xizmat turlari	2011 yil	2012 yil
Bozor xizmatlari	126,6	121,0
SHundan savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari	132,5	126,8
Transport xizmatlari	121,1	112,7
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	151,5	140,1
Moliya va bank xizmatlari	123,8	132,2
Turistik-sayohat xizmatlari	122,3	126,3
Mehmonxona xizmatlari	133,5	122,5
Maishiy va kommunal xizmatlari	109,3	108,4
Avtomobillarni ta'mirlash va boshqa texnik xizmatlar	138,7	139,2
Boshqa xizmatlar	142,5	130,6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdaki mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohalarining o'sish sur'atlari, ayniqsa, avtomobillarni

¹³ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланган.

ta'mirlash va boshqa texnik xizmatlar, Moliya va bank xizmatlari hamda savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari yillar davomida o'sish tendensiyasiga erishgan.

SHuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham yil sayin ortib borayotganligini quyidagi 3-chizmada keltirib o'tilgan.



3-chizma. Xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatida muhim vazifalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini to'g'ri aniqlashdir. Mahsulot tannarxi, uni ishlab chiqarishga qilingan bevosita harajatlarning iyg'indisini ifodalaydi. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish va xarajatlarni hisobga olish boshqaruv hisobining asosiy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi quyidagilar bo'yicha boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi uchun asos bo'ladi:

1. Qanday turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, qaysilarini esa to'xtatish bo'yicha;
2. Zarur yordamchi mahsulotlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi tug'risidan;
3. Ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotga baho belgilash borasida
4. Ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish bo'yicha;
5. Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha berilgan tavsiyalarni asoslashda.

5-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar¹⁴

Ta'sir etuvchi omillar	
Birinchi guruh xarajatlari	Ikkinchi guruh xarajatlari
Mahsulot o'lchami, miqdori	Resurslar qiymati
Mahsulot sifati	Ishlab chiqarish hajmi
Mahsulot ishlab chiqarish murakkabligi	Samaradorlik

¹⁴ www.cfm.ru maълumotlari asosida muallif tomonidan tayёрланди

	Texnologiya
	Joylashgan joyi
	Sotish xarajatlari
	Boshqa omillar

“BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xarajatlarni taqsimlash korxona faoliyatida vujudga kelgan xarajatlarni aniq ob’ektlar bo’yicha guruhlash jarayoni tushuniladi. Xarajatlar ob’ekti sarflangan xarajatlar hisobga olishi zarur bo’lgan tashkiliy bo’limdir. Mahsulot tannarxini aniqlashda kalkulyasion birlikni aniq belgilash muhim masala hisoblanadi. Kalkulyasiya birligi- bu kalkulyasiya ob’ekti o’lchovidir. Uni tanlash mahsulotni tayyorlash xususiyatlari, nomenklatura kengligi, o’lchashda qo’llaniladigan birliklar, amaldagi andozalar va ishlab chiqiladigan mahsulotning texnik shartlariga bog’liq bo’ladi. Kalkulyasiya ob’ektlarini belgilashda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlariga muvofiq ularning nomi, hajmi, sig’im darajasi va idishning turiga qaraladi.

1. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning normativ usuli xarajatlar hisobi normativ usulining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usulning afzalligi unda hisob kitoblarning oddiyligidir.

2. Rejali (taxminiy)tannarx bo’yicha xarajatlar hisobi usuli normativ usulga qaraganda ko’proq qo’shimcha afzalliklarga ega. Unda normativ hajmlarga nisbatan rejalashtirilgan hajmlarni chuqurroq. Asoslanganligi taxminlar aniqligi nazorat samadorligini oshirishni ta’minlaydi.

3. Mahsulot tannarxini aniqlashning jarayonli usulidan mahsulot ishlab chiqarishda xom ashyoning bir necha jarayondan o’tganidan so’ng tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda foydalaniladi.

6-jadval

“BIG-PROM-SERVIS” MCHJda asosiy ishlab chiqarish schyotining tahlili

Asosiy ishlab chiqarish schyoti bilan korrespondentsiya qiluvchi schyotlar	2012 yil		2011 yil		Farqi	
	Xarajat moddalari summasi, so’m	Xarajat moddalari ulushi, %	Xarajat moddalari summasi, so’m	Xarajat moddalari ulushi, %	Summasi, so’m	Ulushi, %
0210	186999877	35.6	89671731	28.3	97328146	7.25
1010	214408264	40.8	118820228	37.6	95588036	3.25
6710	8001657	1.5	2861265	0.9	5140392	0.62
6910	115930242	22.1	104976849	33.2	10953393	11.12
Jami	525340040	100.0	316330073	100.0	209009967	-

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti, ya’ni asosiy ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi yig’iladigan schyot bir necha schyotlar ma’lumotlaridan tashkil topadi. YA’ni, bunda, ishlab chiqarishda band bo’lgan asosiy vositalar amortizatsiyasi, mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarishda band bo’lgan xodimlarning ish haqi, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan boshqa xarajatlar,

jumladan, elektroenergiya va tabiiy gaz, transport xarajatlari, ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalar sug'urtasi kabi xarajatlardan tashkil topadi.

“BIG-PROM-SERVIS” MCHJda xarajatlarni hisobga olish va tannarxni kalkulyasiya qilishning buyurtmali usuli quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- alohida buyurtmalar bo'yicha, shuningdek, bir martalik mahsulot turi ishlab chiqarilayotganda qo'llaniladi;

- bu usulda xarajatlar muayyan hisobot davri (bir oy, chorak, yil) oralig'ida emas, balki, bajarilayotgan buyurtma davri bo'yicha aniqlanadi;

- qo'shimcha analitik ma'lumotlarning yig'ib borish uchun buyurtmalar kartochkasidan foydalanish mumkin. Ushbu buyurtmalar kartochkasidan xarajatlar tegishli javobgarlik markazlari bo'yicha yig'ib boriladi. Koeffisientlarni baholash uch bosqichda amalga oshiriladi:

- umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik byudjeti tuziladi;

- xarajatlarning umumiy summasi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmiga qarab aniqlanadi. Bunda xodimlarning mehnat haqi, sarflangan kishi-soat, sarflangan mashina-soat va h.k.

- rejalashtirilayotgan hisobot davri uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi. Muomalalar bo'yicha tannarx aniqlash usuli istiqbolli aralash tizimlaridan biri hisoblanib unda xarajatlarni hisobga olishning asosiy ob'ekti muomala hisoblanadi. Umumishlab chiqarish xarajatlari mazkur muomaladan o'tgan mahsulot birliklari o'rtasida asosiy ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

2.3. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko’rsatilgan xizmatlar tannarxini kamaytirish yo’llari

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlash, shu bilan birga mahsulot tannarxini pasaytirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki, mahsulot tannarxi xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy iqtisodiy faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi asosiy ko’rsatkichlardan biri hisoblanadi. Buning uchun iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida mahsulot tannarxini pasaytirish va uning hisobini samarali tashkil etish lozim. Shuningdek, bu jarayon xizmat ko’rsatuvchi sub’ektlar faoliyati ham bundan mustasno emas.

Buning uchun xizmat ko’rsatish sohasida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda xizmat ko’rsatishda zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy qilish zarur. Shuningdek, iqtisodiy o’sishni ta’minlash maqsadida ko’rsatilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga iqtisodiy o’sishning muhim omillaridan biri bo’lgan mahsulot tannarxini pasaytirish va sarflangan xarajatlar hisobini to’g’ri tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham bevosita bog’liqdir. Bu borada Prezidentimiz mamlakatda inqirozga qarshi choralar dasturining hal etishga qaratilgan asosiy vazifalarini belgilashda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish orqali iqtisodiy o’sishga erishish va rentabellikni oshirishga alohida e’tibor qaratgan, jumladan “... – qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag’batlantirish hisobidan korxonalar raqobatdoshligini oshirish. SHu maqsadda 2008 yili xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiyotimizning etakchi tarmoq va sohalarida mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma’qullanganini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo’yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas’ul xodimlarni rag’batlantirishning ta’sirchan mexanizmini ishlab chiqish ko’zda tutilmoqda”¹⁵. Bu esa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, jumladan ko’rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga sarflanayotgan xarajatlardan samarali foydalanish bilan bir vaqtda, ular uchun qilingan xarajatlar hisobini ham to’g’ri olib borishni ta’minlash kerakligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida har bir xo’jalik yurituvchi sub’ekt, jumladan, “BIG-PROM-SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyat uchun ham tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi. Ma’lumki, ko’rsatilgan xizmatlar tannarxi qanchalik arzon bo’lsa, shunchalik korxona oladigan foyda miqdori oshib boradi. SHu bilan birga ko’rsatilayotgan xizmatlar

¹⁵ Каримов И. “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари”. – Т.: Ўзбекистон, 2009 й. 33-34 б.

tannarxini kamaytirish MCHJ uchun ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohaida ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun sarflanadigan xomashyo va materiallar va boshqalarning narxlari tez sur'atlar bilan oshib borayotganligi xizmat ko'rstish tarmoqlari tannarxini ham oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, kuchli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotida "BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbarlari oldida tannarxni har tomonlama pasaytirish yo'llarini izlab topish vazifasi turadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda har qanday xizmat ko'rsatish korxonalarida tannarxni pasaytirish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz:

- xizmat ko'rsatishga yuqori unumli, ishonchli va arzon ishlab chiqarish vositalarini joriy etish;
- er, asosiy va aylanma fondlardan oqilona hamda samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning material sig'imini kamaytirish va tejamkorlikka erishish;
- mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko'tarish;
- resurslarni tejovchi va chiqitsiz texnologiyalardan keng foydalanish;
- xizmat ko'rsatish va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllaridan foydalanish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;
- yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslik.

SHuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatning ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini tahlil qilishda quyidagilarga aloxida e'tibor qaratiladi:

- xarajatlarini o'rganish va ularning holatiga baho berish;
- tannarxni pasaytirish bo'yicha belgilangan rejani bajarilishi va dinamikasini nazorat qilish;
- xarajatlarini iqtisodiy elementi va kalkulyasion moddalari bo'yicha o'rganish va ularga baho berish;
- mehnat unumdorligi bilan ish haqi xarajatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish;
- tannarxning o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash;
- ayrim turdagi xizmatlar tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil etish;
- tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va hakozi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofik, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning umumiyligi ta'minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish,xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat qilishga imkoniyat tug'iladi.

Mazkur Nizom buxgalteriya hisobi maqsadlarida va soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni hisoblash tartiblaridagi farqlanishlarini hisobga olib

ishlab chiqilgan. Bunda tahlil qilishning asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida raqobatga bardoshligini aniqlashdir.

Nizomda buxgalteriya hisobi bo'yicha foyda bilan soliqqa tortiladigan foyda o'rtasidagi tafovutlarga izoh berilgan.

Soliqqa tortiladigan foyda buxgalteriya hisobidagi foydadan farq qilishining sababi shundaki, davlat soliq siyosatiga muvofiq amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha korxona xarajatlarining bir qismi soliqqa tortiladigan bazaga kirmaydi. Nizomda moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy qoidalari va xarajatlarni guruhlash berilgan. Birinchi ilovada korxona hisobot davridagi balans foydasini hisoblashda chegiriladigan, lekin xo'jalik sub'ektining soliqqa tortiladigan bazasiga qo'shiladigan xarajat moddalari berilgan. Ikkinchi ilovada xarajatlar amalga oshirilishi paytida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, lekin keyingi davrlarda chegiriladigan xarajatlar ro'yxati berilgan (vaqt bo'yicha farqlanishlar).

Uchinchi ilovada foydasi emas, daromadi soliqqa tortilayotgan korxonalar uchun qo'shimcha chegirilmaydigan xarajatlar ro'yxati berilgan.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik sub'ektlarining biznes reja ma'lumotlari;
- 5-S "Korxona sarf-xarajatlari to'g'risida"gi hisoboti ma'lumotlari;
- 1-T "Mehnat hisoboti" ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schyot ma'lumotlari va boshqa turdagi qo'shimcha ma'lumotlar.

Ko'rsatilayotgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizasiya), mehnat rusurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarining qiymat ko'rinishini ifoda etadi.

"BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish uslubi va texnologiyasi bilan belgilangan xizmatlarni bajarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar kiritiladi. Bularga bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish yo'nalishidagi ustama xarajatlar hamda boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar kiradi.

III-Bob. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko’rsatilgan xizmatlar tannarxi va hisobini zamonaviy usullar yordamida takomillashtirish yo’nalishlari

3.1. Ko’rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishda horij tajribasi

Iqtisodiyotni tarkibiy o’zgartirish va diversifikasiya qilish sharoitida respublikamizda faoliyat olib borayotgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda, shu bilan birga xizmat ko’rsatish sohada ham hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri bu foydani maksimallashtirish maqsadida xarajatlarni eng minimal holatga keltirishdir. Xo’jaliklar faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun eng avvalo sarflangan xarajatlarni samarali boshqarish va uni nazoratini amalga oshirish yotadi.

Bu borada bir qancha nazariy va amaliy izlanishlar olib borilishiga qaramay, fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ushbu muammoning ochilmagan qirralari vujudga kelmoqda. SHu bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotining negizi bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy natijalarini aniq hisoblash, asossiz va nohaq to’lovlar hamda soliqlardan asrashda asosiy omillardan biri bo’lgan xarajatlarni hisobini to’g’ri tashkil etishda bir qancha muammolar ham yo’q emas.

Shunday muammolardan biri – bu xizmat ko’rsatish korxonalarida xarajatlarni zamonaviy va samarali usullar asosida boshqarish va nazorat qilishdir. Xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda ularning kelib chiqish joylarini aniqlash, taqsimlash, maqsadi, yo’nalishi, hisobga olinishi, hisobdan chiqarilishi, ya’ni tannarxga taqsimlashni to’g’ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Xarajatlar hisobini boshqarish va nazorat qilishdan maqsad ularning yo’nalishlarini belgilab olish hisoblanadi. Xizmat ko’rsatishdagi xarajatlar uchun alohida aniq bir maqsadga qaratilgan va ma’lum darajada hisob-kitob talab qiladigan soha yoki jarayon xarajatlar hisobi yo’nalishlarini belgilab beradi. Oddiy qilib aytganda, buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilar xarajatlarni qanday maqsadlarga sarflanishini bilishlari kerak.

Xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilish “BIG-PROM-SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyatida quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim deb hisoblaymiz:

- faoliyat turidan kelib chiqib sarflangan xarajatlarni to’g’ri tasniflash;
- xarajatlarning kelib chiqish joylari va qanday maqsadda sarflanganligini aniqlash;
- xo’jalik faoliyatida sodir bo’lgan xarajatlar to’g’risida aniq va ishonchli ma’lumotlarni o’z vaqtida boshqaruv xodimlariga taqdim etish;
- xarajatlarni xizmatlar tannarxiga kalkulyasiya qilishda samarali va zamonaviy usullardan foydalanish.

SHunday ekan, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida “BIG-PROM-SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyatida boshqaruv hisobi tizimini tashkil qilish va rivojlantirish lozim. Buning uchun “BIG-PROM-SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyat hisob siyosati ham uning o’ziga xos texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

“BIG-PROM-SERVIS” mas’uliyati cheklangan jamiyatida xizmat ko’rsatish yo’nalishidagi barcha xarajatlar ko’rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga kiritiladi. Bu esa xizmat ko’rsatishga sarflangan xarajatlarni to’liq va o’z vaqtida hisobga olish, shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash hamda ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat qilishga imkon beradi.

Jahon amaliyotida xarajatlarni taqsimlash jarayoni umumlashtirilgan ko’rinishda 3-chizmada keltirilgan.



3-chizma. Xarajatlarni taqsimlash va kuzatib borish¹⁶.

Bundan ko’rinib turibdiki, bevosita xarajatlar maqsadli xarajatlarga xarajatlarni bevosita kuzatish orqali, bilvosita xarajatlar esa – xarajatlarni taqsimlash orqali beriladi. Bilvosita xarajatlarni maqsadli xarajatlar bo’yicha aniq taqsimlash uchun sabab-oqibat taqsimotidan foydalanish lozim. Maqsadli xarajatlar bo’yicha bilvosita xarajatlarni kiritish uchun taqsimlash turlarining ikki tizimidan foydalanish mumkin: xarajatlarni taqsimlashning an’anaviy tizimi va funksional tizim, ko’pincha ABC tizim (ingl. activity-based costing – funksiyalar yoki faoliyat turlari asosidagi xarajatlar) deb ham ataladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning an’anaviy tizimlari XX asr boshlarida ishlab chiqilgan bo’lib, haligacha amaliyotda keng qo’llanib kelmoqda. Ularda xarajatlarni shartli taqsimlashdan keng foydalaniladi. AVS turdagi xarajatlarni taqsimlash tizimlari 80-yillarning oxirlarida paydo bo’lib, ularni joriy qilishning asosiy maqsadlaridan biri xarajatlarni faqat sabab-oqibat taqsimotiga o’tkazishga intilish bo’ldi. Xarajatlarni hisobga olishning ikkala tizimida bevosita xarajatlarni maqsadli xarajatlarga kiritishda o’xshash yondashuvlardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xo’jaliklarda xarajatlar bo’yicha xalqaro standartlar va uni iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda tashkil etish amaliyotini o’rganish natijasida xarajatlar hisobi uning yo’nalishiga muvofiq turkumlashning turli xil usullarini nazarda tutadi. SHu bilan birga xarajatlarni boshqarish maqsadida ularni turkumlarga ajratish ham mumkin (7-jadval).

¹⁶ Друри К. Управленческий и производственный учет: пер. с англ. -6-е изд. –М.:ЮНИТИ-ДАНА,2007. 50-51 с.

Boshqarish maqsadlari bo'yicha xarajatlarni turkumlash

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo'nalishi	Xarajatlar turkumining prinsiplari	Xarajatlar turkumi
1. Kalkulyasiya qilish va tayyor mahsulotni baholash uchun ishlatiladigan xarajatlar. 2. Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi. 3. Rejalashtirish, nazorat va tartibga solish tizimida ishlatiladigan xarajatlar	Sub'ektning miqyosi; texnologiya, texnika va ishlab chiqarishni tashkil etishning asoslari; ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi; analitik holati; nazorat; hisoblar; bashoratlik holati; elastiklik; ishlab chiqarish jarayonidagi roli; pasayish omillari; rejalashtirishda muhimligi; xarajatlarni ajratishning maqsadga muvofiqligi; umumiy xarajatlarda tutgan o'rni; mahsulotlar bo'yicha taqsimlashda asosiylik; hisobning mehnat hajmi	Haqiqiy xarajatlar tarkibi; asosiy va yordamchi materiallar, mehnat xarajatlari, ishlab chiqarishning ustama xarajatlari, kiritiladigan va muddati o'tgan; hisobot davriga tegishli tannarxga kiritiladigan. Xarajatlar xulqi; doimiy, shartli-doimiy, o'zgaruvchan, shartli-o'zgaruvchan. Kelajak davr xarajatlari: baholashda hisobga olinadigan va olinmaydigan. Qaror qabul qilish: qaytmas xarajatlar, o'zgartirilgan, inkrement, marjinal. Javobgarlik markazlari: tartibga solinadigan va solinmaydigan xarajatlar. Xarajatlarning paydo bo'lish joylari, me'yoriy (smetali) xarajatlar va ulardan chetlanishlar

“Xarajatlar hisobining yo'nalishi deganda ishlab chiqarishga bo'lgan va umumlashtirilgan maqsadga yo'naltirilgan xarajatlar hisobi zarur bo'lgan faoliyat tushuniladi”¹⁷.

Bizning fikrimizcha, xarajatlarni boshqarish maqsadida hamda yo'nalishlari bo'yicha guruhlariga ajratish, xo'jaliklar faoliyatida ularning samaradorligini oshirishda muhim manbalardan biri bo'ladi. SHuningdek, “BIG-PROM-SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatida ham xarajatlar maqsadi va yo'nalishlari bo'yicha guruhlariga ajratishda tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy ish yuritishning zamonaviy sharoitlarida texnik va strategik xarakterdagi boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni korxona xarajatlari va moliyaviy natijalar haqidagi axborotga tayanadi. Korxona xarajatlarni boshqarishda “Direkt-kosting” hisob tizimi samarali qurollardan biri hisoblanadi. Uning asosida belgilangan me'yorlar va me'yoriy hujjatlar doirasida va ulardagi og'ishlar bo'yicha hisob va nazorat tamoyillari yotadi.

3.2. “BIG-PROM-SERVIS” MCHJda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishda “Direkt-kosting” tizimini joriy qilish masalalari

“BIG-PROM-SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatida ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini pasaytirish va samarali boshqarish tannarxni aniqlashning zamonaviy tizimlarini amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi. Shu asnoda, “BIG-PROM-SERVIS” mas'uliyati cheklangan jamiyatida “Direkt-kosting” hisob tizimini joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

¹⁷ Бобожонов О., Жуманиёзов К. Бошқарув ҳисоби. –Т., ТДИУ. 2005 й. 65-б.

“Direkt-kosting” hisob tizimi ham respublikamiz buxgalteriya hisobi uchun yangi tizimlardan hisoblanib, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng qo’llanilmoqda. Germaniya va Avstraliyada mazkur usul “qisman xarajatlar hisobi” deb ataladi. Britaniyada u “marjinal xarajatlar hisobi”, Fransiya - “marjinal buxgalteriya” yoki “marjinal hisob” degan nomlarni olgan. O’zbekistonda esa “cheklangan, to’liq bo’lmagan yoki qisqartirilgan tannarx hisobi” tushunchalari qo’llanilib kelmoqda.

G’arb mamlakatlarida marjinal daromad usulidan ishlab chiqarishni (ekstensiv) rivojlantirish modeli o’rniga yangi model - intensiv rivojlanish modeli sifatida foydalanila boshlandi. Bunday modeldan foydalanish, o’z navbatida, xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo’shimcha, doimiy va o’zgaruvchan xarajatlarga aniq bo’lishni va shu asosda boshqarishning strategik vazifalarini hal etishni talab qiladi.

SHuni nazarda tutish kerakki, “Direkt-kosting” tizimining paydo bo’lishi buxgalteriya hisobi bilan bog’liq edi. Hisob xodimlari o’sha davrda shunday xulosaga kelishdiki, barcha xarajatlar mazkur hisobot davriga va shu davrdagi ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog’liq ya’ni ular mahsulot sotilgandagi hisobot davriga tegishli bo’lishi lozim.

“Direkt-kosting” tizimining asosiy maqsadi korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o’zgarishiga bog’liq holda doimiy va o’zgaruvchan xarajatlarga bo’lishdan iborat.¹⁸

Dastlabki bosqichda tannarxga faqat o’zgaruvchan xarajatlar kiritilar edi, doimiy xarajatlar esa korxonaning moliyaviy natijalariga hisobdan chiqarilar edi. Direct-Costing-System (bevosita xarajatlar hisobi tizimi)ning nomi ham shundan kelib chiqqan, keyinroq “Direkt-kosting” tizimi shunday hisob tizimiga aylandiki, unda tannarx faqat *bevosita* o’zgaruvchan xarajatlar qismida hisob-kitob qilinadigan bo’ldi. Mazkur nomdagi bir qator shartliliklar ana shundan kelib chiqqan.

Bugungi kunda amaliyotda “Direkt-kosting” tizimini turli variantlarda qo’llash imkoniyati mavjud. Bevosita xarajatlar bo’yicha kalkulyasiyalashni ko’zda tutuvchi klassik “Direkt-kosting” tizimida xarajatlarni kalkulyasiyalash o’zgaruvchan xarajatlar bo’yicha amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona va to’liq quvvati bo’yicha foydalanish xarajatlarini kalkulyasiyalash jarayoniga barcha o’zgaruvchan xarajatlar hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffisientiga muvofiq aniqlanadi.

“Direkt-kosting” hisob tizimida moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot tizimi quyidagi ko’rinishda aks ettiriladi (8-jadval).

8-jadval

**“BIG-PROM-SERVIS” MCHJning 2012 yilgi ma’lumotlari asosida
“Direkt-kosting” tizimlari bo’yicha moliyaviy natijani aniqlashning qiyosiy**

¹⁸ Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби. /Дарслик –Т.: Иқтисод, 2011 й.

ko'rinishi¹⁹

№	“Direkt-kosting” tizimi bo'yicha	Summa, ming mo'm	№	To'liq tannarx usuli bo'yicha	Summa , ming so'm
1.	Xizmatlarni sotishdan tushgan tushum	13731.0	1.	Hizmatlarni sotishdan tushgan tushum	13731.0
2.	O'zgaruvchan xarajatlar (sotilgan xizmat)larning tannarxi)	6589.0	2.	Sotilgan xizmatlarning to'liq tannarxi	12410.0
3.	Marjinal daromad (1q-2q) (xizmatlarni sotishning yalpi foydasi (zarar)	7142.0	3.	Asosiy (operasi-on) foyda (zarar)	1321.0
4.	Doimiy xarajatlar (davri xarajatlari)	5821.0			
5.	Asosiy (operasion) foyda (zarar)	1321.0			

Jadval ma'lumotlari moliyaviy natijani aniqlash tartibidan kelib chiqib “Direkt-kosting” hisob tizimi va mahsulotning to'liq tannarxi o'rtasidagi farqli jihatlarni ifoda etadi.

SHunday qilib, “Direkt-kosting” hisob tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

- hisobni birinchi navbatda marjinal daromad ya'ni oraliq moliyaviy natijani aniqlashga yo'naltirilishi;

- mahsulotni faqat o'zgaruvchan xarajatlar nuqtai-nazaridan hisobga olish va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash;

- korxona bo'yicha doimiy xarajatlar hisobi va ularni yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun operasion foydani kamaytirishga qaratish;

- bahoni tezkor boshqarish jarayoni asosi sifatida marjinal daromadni aniqlash;

- sotish hajmi, tannarx va foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatni aniqlash;

- zararsizlik nuqtasini belgilash.

“Direkt-kosting” hisobi tizimining asosiy afzalliklari quyidagilar:

- mahsulot tannarxini hisoblashdagi soddalashtirish va aniqlik;

- mahsulot turlari o'rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun murakkab hisob-kitoblar qilinmasligi (ular mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmaydi va moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadi);

- rentabellik darajasi (zararsizlik nuqtasi, sotish hajmi), mahsulot bahosining quyi chegarasini aniqlash imkoniyati;

- mahsulotning xilma-xil turlari bo'yicha rentabellik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash imkoniyati;

¹⁹ “BIG-PROM-SERVIS” МЧЖ молиявий ҳисобот маълумотлари муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

–o’zi ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlar hamda ularni chetdan sotib olishdagi tanlov imkoniyati.

“Direkt-kosting” hisob tizimi rahbarlarga korxona miqyosida va turli mahsulotlar bo’yicha marjinal daromadning o’zgarishiga e’tiborni kuchaytirishga imkon beradi, bunda yuqori rentabelli mahsulotni aniqlashda sotish bahosi va o’zgaruvchan xarajatlar summasi o’rtasidagi tafovut alohida mahsulotlar tannarxiga doimiy xarajatlarni kiritish natijasida yashirinib qolmaydi, mazkur tizim bozor sharoiti o’zgarishiga javoban xaridorgir mahsulotlarni tez ilg’ab olish imkonini beradi. Erkin bozor raqobati sharoitida “Direkt-kosting” hisob tizimi korxonani boshqarish tizimi - marketingning tarkibiy qismiga aylanadi.²⁰

Bundan tashqari, “Direkt-kosting” hisob tizimi doimiy xarajatlar ustidan tezkor nazorat o’rnatishga ko’maklashadi, chunki tannarxni nazorat qilish jarayonida standart (normativ) xarajatlar (“Direkt-kosting” hisob tizimi «Standart-kost» tizimi bilan birgalikda tashkil etiladi) yoki moslashuvchan smetalardan foydalaniladi. Modomiki, “Direkt-kosting” tizimida standartlar qo’llanilar ekan, bunda o’zgaruvchan va doimiy xarajatlarga normalar belgilanadi. SHuni nazarda tutish kerakki, to’liq tannarx hisobi tizimida qo’shimcha xarajatlar taqsimlanmagan summasining bir qismi bir hisobot davridan boshqasiga o’tadi, shu bois, ularni nazorat qilish sustlashadi. Bunday holda “Direkt-kosting” tizimi qo’shimcha xarajatlar taqsimlanishining mehnattalabligini kamaytirishga yordam beradi.

SHuningdek, “Direkt-kosting” tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish unga xos bo’lgan quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi:

–raqobat kurashida baholarni sun’iy ravishda pasaytirish kuzatilsa, doimiy xarajatlar marjinal daromad hisobidan qoplanishi mumkin bo’lmaydi ya’ni korxona zarar ko’ra boshlaydi.

–“Direkt-kosting” tizimini muxoliflarining fikricha, bu tizim ishlab chiqarilgan mahsulotning to’liq tannarxini schyotlar tizimida aniqlash mushkul. SHu bois, tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqirishning to’liq tannarxini aniqlash zarur bo’lganda shartli-doimiy xarajatlarni qo’shimcha tarzda taqsimlash talab etiladi.

–faqat ishlab chiqarish tannarxi ya’ni moddalarni qisqartirilgan nomenklatura nuqtai-nazaridan hisob olib borish hisob talablariga javob bermaydi, chunki bunda zaruriy mahsulotning to’la tannarxi hisob-kitob qilinmaydi.

“Direkt-kosting” tizimini O’zbekiston korxonalarini boshqarishda qo’llashning imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligini tahlil etish tadqiqotning navbatdagi bosqichi hisoblanadi.²¹

²⁰ Ибрагимов А., Очилов И., Кўзиев И., Ризаев Н., Молиявий ва бошқарув ҳисоби./Ўқув қўлланма. -Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2008 й.

²¹ Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби. /Дарслик –Т.: Иқтисод, 2011 й.

Mustaqillik yillarigacha mahsulotning to'liq tannarxini kalkulyasiya qilish O'zbekiston buxgalteriya hisobi uchun an'anaviy hisoblangan. Undagi hisob mahsulotning to'liq tannarxi haqida ma'lumotlar olishga qaratilgan. Bu variantda mahsulot tannarxi doimiy va o'zgaruvchan, asosiy va qo'shimchalarga, bevosita va bilvosita, uzluksiz ishlab chiqariladigan va davriyga bo'linishidan qat'iy nazar, unga korxonaning barcha xarajatlari kiradi. Bevosita mahsulotga taalluqli bo'lmaydigan xarajatlar hisobot davri mobaynida yig'ib-taqsimlovchi schyotlarda to'planadi, so'ngra hisob siyosati bo'yicha tasdiqlangan bazaga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga o'tkaziladi, biroq bu variantda mahsulot birligi tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda o'zgarishi hisobga olinmaydi.

Agar korxona mahsulot ishlab chiqarish va sotishni kengaytirsam mahsulot birligi tannarxi pasayadi, agar korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartirsam, tannarx o'sadi. Bunday sharoitda O'zbekiston korxonalarida "Direkt-kosting" tizimini qo'llash zarurligi va maqsadga muvofiqligi dolzarb bo'lib qoladi.

"Direkt-kosting" tizimi elementlarini respublikamiz amaliyotiga qo'llashda 1994 yil burilish davri bo'ldi. Bunda korxonalar asta-sekin tannarxni kalkulyasiya qilishning O'zbekiston hisobi uchun noan'anaviy bo'lgan usulini o'zlashtira boshladilar. Bu usul "Direkt-kosting" tizimi asosida joriy qilina boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 martda 164-sonli «O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash va buxgalteriya hisobi schyotlar tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori asosida buxgalteriya hisobini rivojlantirish bo'yicha bir necha qadamlar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va BMTning xalqaro ekspertlari ishtirokida ishlab chiqilgan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida»gi Nizom (1999 yil 5 fevral) qabul qilindi.

SHundan so'ng, unda ma'muriy boshqaruvga oid xarajatlar «Davri xarajatlari» deb atalishi va ular «Foyda va zararlar» schyotiga hisobdan chiqarilishi belgilab qo'yildi. Albatta, bu tarixga aylangan haqiqat, biroq shu davrdan boshlab O'zbekistonda «Direkt-kosting» tizimi va marjinal daromad konsepsiyasiga asos solindi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qoida 21-BHMSga asosan, buxgalteriya hisobida qo'shimcha xarajatlar 9000-"Asosiy (operasion) faoliyatdan olingan daromadlar hisobi" schyotlarining debeti va 9400-"Davri xarajatlari hisobi" schyotlarining krediti bo'yicha qayd etilishini nazarda tutgan.

Xulosa qilib aytganda, «Direkt-kosting» tizimi bo'yicha O'zbekiston korxonalari hisobi amaliyotini tashkil etish bugungi kun talabidir. Uni "BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotida qo'llash xizmat ko'rsatish va tijorat faoliyati samaradorligini oshirishga, sanab o'tilgan ko'rsatkichlar nazorati, tahliliyligi va ishonchliligini kuchaytirishga va xizmatlar

tannarxini pasaytirishning zaxiralarini to'la aniqlash va foydalanishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizasiya qilish va ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni izchil davom ettirish xozirgi kunda mamlakatimizda dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu borada mamlakatimizning iqtisodiy saloxiyatini oshirish, jumladan, xizmat ko'rsatish sohalariga katta e'tibor berilayotgan bir vaqtda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish borasida xizmat ko'rsatish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish, taqsimlash hamda tannarxni to'g'ri aniqlash va uni pasaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta tadbirkorlikni boshqarishda xizmat ko'rsatish xarajatlari bo'yicha operatsiyalarining samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ularning buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish milliy va xalkaro andozalar asosida tashkil kilinishi dolzarb masalalardan biri ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Boshqaruv qarorlar bo'yicha xo'jalik operatsiyalarinig yukori samaradorligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish xarajatlarini mumkin qadar kamaytirish va ularning hisobini tashkil etish muhim vositalardan biri bo'lib xizmat kiladi. Aynan shu maqsadda mazkur o'zgarishlarni amalga oshirish o'ta zarur masala hisoblanadi.

SHunday masalalarning echimini berish maqsadida xizmat ko'rsatish korxonalarini tutgan o'rni va ularda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi hisobi takomillashtirish hamda xalqaro amaliyotni o'rganish natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

- hisobdagi xizmat ko'rsatish xarajatlarini hisoblashda eng qulay va sodda bo'lgan usullarni qo'llash buxgalteriya hisobini yuritishni osonlashtiradi hamda hisob-kitob ishlarini kamaytiradi;

- bizga ma'lumki xizmat ko'rsatish xarajatlari hisobi tizimi xalkaro va milliy andozalar asosida yanada takomillashgan xolatda tashkil etilsa maksadga muvofik bo'lar edi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobini sodda shaklini yaratib beradi;

- boshqaruv faoliyatdagi xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil kilishdagi mavjud muammolarni buxgalteriya hisobiga oid ilmiy ishlanmalarda boshqaruv faoliyati sarflari bo'yicha yo'l qo'yiladigan kamchiliklarning oldini olish hamda zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratgan bo'lar edi deb o'ylaymiz;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqaruv faoliyatini xar tomonlama tahlil qilish maqsadida quyidagi xar xil mikdor va sifat ko'rsatkichlarini xar oyda hisoblash maksadga muvofik deb hisoblayman. Ushbu ko'rsatkich aniq bo'lsada, xo'jalik yurituvchi sub'ektning umumiy xarajatlarini kanchalik darajada foydaliligini taxminan aniqlashda yordam beradi. Lekin ular sub'ektning rentabellik darajasi qay xolatda ekanligi to'hrisidagi savolga javob bermaydi. SHuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining boshqaruv rentabelligi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zarurdir;

- "BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida xizmat ko'rsatish xarajatlari hisobi belgilangan normalar asosida bo'lishini ta'minlash korxona uchun kelajakda yanada moliyaviy natijadarini oshirishga olib keladi deb hisoblayomiz;

- iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida xizmatlarni sotish va ma'lumotlarga ega bo'lishda sohaini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, shundan kelib chiqqan xolda ayniqsa xizmat ko'rsatish korxonalarida xarajatlarni oshib ketishi moliyaviy natijalarning kamayishiga olib keladi.

- «Direkt-kosting» tizimi bo'yicha O'zbekiston korxonalari hisobi amaliyotini tashkil etish bugungi kun talabidir. Uni "BIG-PROM-SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotida qo'llash xizmat ko'rsatish va tijorat faoliyati samaradorligini oshirishga, sanab o'tilgan ko'rsatkichlar nazorati, tahliliyligi va ishonchliligini kuchaytirishga va xizmatlar tannarxini pasaytirishning zaxiralarini to'la aniqlash va foydalanishga imkon beradi.

Xozirgi iqtisodiy sharoitda xizmat ko'rsatish korxonalarini tutgan o'rni va ularda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini to'g'ri hisoblash va hisobini samarali tashkil etilishiga alohida e'tiborga olgan holda mazkur bitiruv malakaviy ishida keltirilgan taklif va tavsiyalar xizmat ko'rsatish korxonalaridagi xizmat ko'rsatish xarajatlari hisobi va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini kalkulyasiya qilishni yanada takomillashtirishga amaliy yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2008. – 692 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonuni. –T.: 2008 y.
4. Prezidenti Islom Karimovning “Mistahkam oila yili” Davlat dasturi. 2012 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 martdagi PQ-1306-sonli “2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida”gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investision dasturi haqida”gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O'z.R. Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori. 22.12.2012 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi Nizom. 54- qarori. –T.: 1999y.

II. Prezident asarlari

11. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. “Xalq so'zi” gazetasi, 2013 yil 19 yanvar, № 13 (5687).
12. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.
13. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
15. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 176 b.

III. Cohaga oid me'yoriy hujjatlar

16. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. – T.: «Norma» MCHJ, 2006 y. – 352 b.

17. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. BHMS №21. – T.: Norma, 2010 y.

18. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.

IV. Asosiy adabiyotlar

19. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. /Darslik –T.: Iqtisod, 2011. -307 b.

20. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi./Darslik –T.: CHO'lpon, 2011. -185 b.

21. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. Rossiya . -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.

22. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet.

23. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchët vneshne-ekonomicheskoy deyatel'nosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

24. Kasyanova G.YU. Основные средства: бухгалтерский и налоговый учет. Россия .-M.: BAK, 2010. – 256 s.

25. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

26. Klimovich V.P. Основы банковского аудита: ucheb. Rossiya . - M.: FORUM, 2010. – 192 s.

27. Druri K. Upravlencheskiy i proizvodstvennyy uchët: per. s angl. -6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 1423 s.

28. Podolskiy V.I., Savin A.A. Audit: ucheb'nik. Rossiya . -M.: YUrayt, 2010.–605s.

29. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. Rossiya . -M.: Delo i Servis, 2010. – 224 s.

30. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy (finansovyy, upravlencheskiy) uchët: ucheb. – M.: Prospekt, 2009. – 448 s.

31. SHilenko S.I. i dr. Основы аудита: ucheb'nik. – M.: KNORUS, 2009. – 152 s.

32. SHeremet A.D., Suys V.P., «Audit», M.:«INFRA-M», 2009 -401 str.

33. Sokolova,E.S. Buxgalterskoe delo: ucheb'nik. - M.: Vysshee obrazovanie, 2008.- 328 s

34. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y

35. To'laxo'jaeva M. Ilxomov SH. Audit. O'quv qo'llanma. –T.: 2006 y.

36. Do'stmuratov R.D. Audit asoslari. –T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2003. – 612 b.

37. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N., Moliyaviy va boshqaruv hisobi./O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. - 451 b.

38. O'razov K., Voxidov S. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. /Darslik. –T.: ADIB NASHIRIYOTI, 2011. - 488 b.

39. Sotivoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y.

40. Zamuraeva L.E. Upravlenie zatratami: Uchebnoe posobie. Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2005. – 264 s.

41. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq,2004.-592 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

42. O'zR Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-T.: “O'qituvchi” NMIU, 2012.- 272 bet.

43. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –T.: Iqtisodiyot. 2010 y.

44. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

45. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: “Iqtisodiyot” 2010.

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. -120 b.

47. Endoviskiy D.A., Ishkova N.A. Uchet sennykh bumag: ucheb. posob. Rossiya.-M.: KNORUS, 2010. – 384 s.

48. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshneekonomicheskoy deyatelnosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

49. Medvedev M.YU. Uchetnaya politika organizasii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.

50. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

51. Kasyanova G.YU. Uchetnaya politika: buxgalterskaya i nalogovaya. Rossiya -M.: ABAK, 2010. – 160 s.

52. Kulikova L.I. Uchetnaya politika organizatsii: novoe reshenie. Rossiya . - M.: Buxgalterskiy uchët, 2010. – 336 s. – 2 ekz.

53. Medvedev M.YU. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.

54. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.

55. Zonova A.V. i dr. Buxgalterskiy uchët i analiz: ucheb. posob. pod red. A.V. Zonovoy. – M.: Eksmo, 2009. – 512 s.

56. Kamordjanova N.A., Kartashova I.V. Buxgalterskiy finansovyy uchët. 4-e izd., dop. – SPb.: Piter, 2009. – 288 s.

57. Kuter M.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: Uchebnik.- 3-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansy i statistika , 2008.- 592 s.

58. Zaxarin V.R. Uchët osnovnykh sredstv i nematerialnykh aktivov: spravochnik buxgaltera: prakt. rukovodstvo.- M.: Eksmo, 2008.- 320 s.

59. Konstantinova E.P. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti: Ucheb. posob. – M.: «Dashkov i K », 2008. – 288 s.

60. Taking Control of IT Costs (Upravlenie zatratami na informatsionnyye tekhnologii). Izdatelstvo Financial Times, 2000. – 272 s.

61. Pochinok A. Audit i nalogovoe zakonadatelstvo. // Audit.-2007. №4.

62. Jumaev I. Xarajatlarni boshqarish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, –T., 2009. №6. –B. 33.

63. Ibragimov A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobi. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –T., 2007. -№2. –B. 15-17.

64. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –T.: TDIU 2012 y. – 344 bet.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

65. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –T.: 2010-2013 yillar

66. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –T.: 2010-2013 yillar

67. «Soliq va bojxona xabarlari» gazeta. –T.: 2010-2013 yillar

68. O'zbekistonning 2012 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari. –T.: O'zbekiston, 2013.

69. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnal. –T.: 2010-2013 yillar.

VII. Internet saytlari.

70. “Norma” 2013.

71. “Pravo” 2013.